

For all the good that is in the world

A.A. Voznesensky



TOVUSH
SOYASI

Rus adabiyoti durdonalari

ANDREY ANDREYEVICH
VOZNESENSKIY



**TOVUSH
SOYASI**

She'rlar, dostonlar va nasriy qofiyalar

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

89416

UO'K 821.512. 133-1
KBK 84 (2Ros-Rus)
V 77

Rus tilidan Sirojiddin Sayyid tarjimai

Andrey Voznesenskiy – o‘n to‘rt yoshligidanoq o‘z she‘rlari bilan shaxsan Boris Pasternakning e‘tiborini qozongan XX asrning eng benazir shoirlaridan biri. U Bella Axmadulina, Yevgeniy Yevtushenko bilan bir qatorda rus she‘riyatida haqiqiy inqilobni amalga oshirgan «oltmishinchi yillar»ning yetuk arbobi hisoblanadi. Uning nasriy va nazmiy asarlari minglab odamlarni o‘ziga rom etgan va o‘z vaqtida yoshlarning ongiga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Kitobda o‘quvchilar e‘tiboriga ijodkorning eng sara asarlari taqdim etilgan.

ISBN 978-9943-7145-1-9

© Sirojiddin Sayyid (tarj.), 2021
© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2021



ASIL DUNYO BO'LGAN «AKSILDUNYOLAR»

So'zboshi o'rnida

Odamzod hamisha o'z yillariga muqaddima izlaydi. So'z izlaydi, ifoda istaydi. Yillarni so'zlar birikmasiday tahlil qiladi, qarolikmi, ro'shnolik ko'rdimi – xulosa chiqaradi. Xulosaning o'zi uni qoniqtirmaydi, yana urinadi, qiynaladi, qaytadi, qaytaveradi. Qaytgan sayin uzoqlashadi, uzoqlashgan sayin qaytadi. Ibtidodan intihoga, intihodan ibtidoga.

O'ylab-o'ylab ushbu bitiklarga 1975-yilning qahraton qishi munosib muqaddima bo'lar degan qarorga keldim.

* * *

Siz jurnalistika fakultetining 1-kurs talabasi, o'z kuchingiz bilan dorilfununga kirib ta'lim olayotganingizdan boshingiz osmonda, dunyoga sig'may yuribsiz, paxtani terib keldingiz, endi esa «bilim cho'qqilarini zabt etyapsiz», kursdosh qizlar girdikapalak, domlalar mehribon – darsga kelmasangiz ham she'r aytganingiz uchun «besh» qo'yib beradi, har oyda 40 so'm stipendiya (bu so'z tilingizda mudom asalday erib turadi), lekin bularning hammasi kam, kamlik qiladi, sizga yana nimadir kerak, «bilim cho'qqilari»dan tashqari ko'ksingizda yana qandaydir cho'qqilar yashiringan-u siz ularni bilmaysiz, nom qidirasiz – topolmaysiz, oldinda – imtihonlar chillasi, siz esa nuqul she'r yodlaysiz, darslarda konspekt o'rniga she'r yozib o'tirasiz, «seminar» daftarlaringiz to'la she'r, yarim kechasi uyg'onib dabdurustdan baralla she'r aytishga tushasiz, hamxonangiz buxorolik Orif Qandahor telbasirab uyqusidan sakrab turadi, har bir ko'zi piyoladay, qaltiraydi,

«Ogʻayni, – deydi, – shoirlikning vaqtimas, uxlaylik, ertaga seminar». Indamay yoʻlakka chiqib ketasiz. Yotoqxonaning qishin-yozin yelvizak yelib turadigan uzun yoʻlagi. Ne-ne orzu-umidlaringiz qolgan yoʻlak, yelvizagi ne-ne istaklaringiz, qanchadan qancha hoy-u havaslaringizni chirmab olib ketgan yoʻlak. Deraza rafiga oʻtirasiz, «oʻz oʻzingizga sheʼr oʻqiysiz»:

*Men shoirman,
Istasangiz shu,
Oʻzimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuygʻu,
Oʻzgaga ham bermam ovozim.*

Tashqarida qish qarsillaydi – yoʻllar muz, havolar muz, daraxtlar tosh otsangiz chil-chil sinib toʻkiladiganday qotgan, bu qahratonda kiyishga paltongiz yoʻgʻ-u, lekin sheʼr aytib oʻtiribsiz – u yogʻi Vahob shoir-u bu yogʻi – Erkin aka, Abdulla akalardan. «Yoshlik devoni» qoʻlingizda, «Ruhim» kitobini yoddan bilasiz – u paytlar bu kitoblar atrofidagi shovqin hali tinganicha yoʻq edi va yana Sergey Yesenin-ning ustoz Erkin Vohidov tarjimasida chiqqan qayinlar aksi aralash zangor muqovali kaftdekkina kitobchasi. Qoʻlga oldingiz – tamom, qahraton ham unut, paltongiz yoʻqligi ham esdan chiqadi – isinib ketasiz.

*Bu dunyoda men bir yoʻlovchi,
Shodon menga qoʻl silki, erkam.
Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo toʻkar kuz fasli oy ham.*

Garchi olamda zimiston boʻlsa ham siz oy «tinch erkalovchi ziyo» toʻkayotgan iliq kuz qoʻyniga choʻmib ketganday boʻlasiz. Joningizga bir iliqlik yuguradi. Sheʼrlar sizni isitadi. Siz hali bilmaysizki, qoladigani – shu sheʼrlar, doʻstlar tark etadi, qizlar qaramay ketadi, yillar ham – beandisha, sizdan soʻramayin gʻoyib boʻladi, sheʼrlar esa, barcha yoʻlovchilar isinib oʻtgan, lekin baribir yoniq qolgan, dilingizdan joy olgan togʻlardagi gulxanlar misol qoladi sheʼrlar.

Shunday tunlarning birida oldingizga rus guruhida oʻqiydigan Alisher ismli yigit keladi (siz «isming Alisher boʻlgandan keyin Alisher boboning tilida oʻqishing kerak» deb nuqul tashviqot qilardingiz unga).

Qo'lida g'alati muqovali kitob. Nomi ham g'alati: «Антимиры». Bu so'z sizga dinozavrdek begona tuyuladi.

– Voznesenskiyni bilasanmi? – deydi Alisher. – Bilishing kerak. O'qishing kerak. Bu – Xudo!

Garchi u paytlar yerdagi «xudolarga» ishingiz tushmagan bo'lsa-da, «Voznesenskiy» degan so'z qulog'ingizga jaranglab eshitiladi, bu jarang yoqimli edi, go'yoki faqir talabalik hayotingizga, yotoqxonaning huvillagan yalang yo'lagiga yarim kechasi ko'kdan bir oltin tanga tushdi-yu, siz bu tanganing nimaligini hali bilmasdingiz, tushunmasdingiz. Kitobni o'qish uchun oldingiz. Barcha azoblar, tushkunlikka tushishlar-u kechalari chinqirib chiqishlar shundan keyin boshlandi.

Ko'rinishi ham, nomi ham g'alati bu kitobning ichidagi she'rlar ham g'alati ekan. Bunaqangi she'rlarni hech qayerda uchratmagan-siz, hech qayerda o'qimagan-siz. Qayta-qayta varaqlaysiz, qayta-qayta tirishasiz, lekin hech baloni tushunmaysiz. Bir tomondan rus tilini yaxshi bilmaganingiz, ikkinchi tomondan g'o'rtingiz alam qiladi, ustiga-ustak, qo'lingizdagi kitobning muallifi haqiqatan ham zo'r shoir ekanini, she'rlaridagi jazavani, cho'yan chinqirig'-u tashbeh-larning betakrorligini, dadilligi, bepoyon ruhini bilib turibsiz, lekin tushunmayapsiz, tushunishni, voqif bo'lishni juda-juda istayapsiz, biroq tushunolmayapsiz, yotoqxonaning muzday devoriga boshingizni urib faryodlar qilsangiz ham tushunmaysiz! «Антимиры», «Фрески Феофана», «Мерлин Монро», «Библейское небо», «штанга ушей», «человолки», «лунные раковины», «спиритизм», «шарф мой, Париж мой» singari so'zlar sizga shu qadar begona, shu qadar qo'l yetmas bo'lib tuyuladiki, xo'rtingiz kelib ketadi. «She'riy kitobmi yoki sopromat darsligimi bu, nima balo?» deysiz, bolalikda o'qiganlaringiz «Go'ro'g'li», «Avazxon»lar, «Alpomish»lar keladi yodingizga, yosh umringizda ilk marta kitob uzra nochor-u notavon qolganingiz edi bu – ko'zingizga yosh qalqiydi. Yo'lak ham, dunyo ham juda g'arib ko'rinadi. O'zingizga taskin berasiz. O'sha tun farish-talar sizga yor bo'lgan ekan, keyin yillar o'tib anglab yetdingiz, rasmona mutarjimlikka berilib, bir paytlar chigal jumboqlar bo'lib tuyulgan, sizni qon qaqshatgan she'rlarni zavq-u shavq bilan o'zbekchaga ag'dara boshlaysiz.

O'n uch yildan keyin.

O'n uch yildan keyin Toshkentdan turib u zotga qo'ng'iroq qilasiz. Aytdingizki, «Siz bilan uchrashishim kerak». «Keling, – dedi, – fa-

lon kuni kutaman». Bu paytga kelib o'smirligingiz, o'smir orzular-u quvonchlarigingizdan nom-nishon ham qolmagan bo'lsa-da, baribir, boladay quvondingiz. Go'yoki qandaydir ilohiy ovoz Sizga o'n uch yillik ayriliqdan keyin o'smirligingizni qaytarib berganday, dunyo yana o'zining azaliy holatiga qaytgandek.

O'n uch yildan keyin.

Voznesenskiy bahonasida Moskvani ham ko'radigan bo'ldingiz. Ko'nglingizdan kechgan birinchi gap shu bo'ldi: «Qovog'i soliq shahar ekan». Lekin sizning qovog'ingizdan nur yog'iladi. Hamma narsa siz uchun yangi, odamlar, ko'cha-ko'ylar ham, qora suvlar-u bahaybat ko'priklar, yer ostida o'rgimchakning iniday to'rt tomonga shox tashlagan tinib-tinchimas metro ham, hatto qadimiy ko'hna ibodatxonalar ham siz uchun yangi. Siz tamomila boshqa olamga kirib qolgandingiz va bu olamda, Moskvadan chetroqda, Peredelkino qayinzorlari orasida she'rlari sizni o'n uch yildan buyon qiynab kelayotgan, kun bermayotgan shoir sizni kutayпти. Uning vaqti ziq, lekin siz shoshilmayapsiz.

Barcha hayratingizga qarama-qarshi o'laroq Voznesenskiy ham sizni hayrat bilan kutib oladi. Ya'ni «Toshkentdan turib mening oromimni buzishga jur'at etgan, she'rlarimni o'zicha tarjima qilib yurgan bu shoir yigit kim bo'ldi ekan?» deganday. Sizning tashrifingiz esa shunchaki tashrif emasdi, o'n uch yillik jur'atingiz edi bu. Ushbu uchrashuvga jur'at etdingizmi, endi bu yog'iga ham chidang!

Cho'yan eritiladigan pechning oldida o'tirganday yuzingiz lovlulaydi. Dalahovlisining aylanma fonusnuxsa xonasi. Devorlarga qaray-siz. Devorlarda «Asliyatni qo'msash» she'ri asosida qora siyohda chizilgan suratlar. Katta oq qog'ozlarda, katta oq romlarning hoshiyasiga olinib, oynavand qilingan. Qatorasiga. Har oynaning ostida she'ming to'rt yo besh satri va shuning mazmuniga mos surat. Surat ham emas, odamzodning faryod-fig'onini ifodalovchi, iltijo-tavallosi bildiruvchi shakllar, tasvirlar. Va o'yladingizki, bular shunchaki emas ekan, bu – oynaband kitob ekan, bir she'rdan tuzilgan, devorlarga osilgan kitobning oynaband sahifalari ekan. Shoiringning sarchashmalari – me'morlik, arxitektura istiqomatgohida ham o'zini yaxlit bildirib turibdi. Oynaband faryodlar! Shoiringmi, zamonning va yo insoniyatning faryodlarimidir bular?

«Tanishuv»ni davom ettirasiz. O'rtada shoiring o'zi chizgan katta aylanma shakl. Falakning gardishi edi go'yo bu. Dunyoni, odamlar, mamlakatlarni, hasrat-u qismatlar, oq-u qorani qorishtirib aylanayot-

ganday. Gardishning tevaragida aylanasiga «мать» degan soʻz yozilgan. Ajratilmay yozilgani uchun «мать» «тьма» aylanib boradi. Yaʼni bunday: «МАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬ». Bu paytga kelib shoir otasidan judo boʻlgan, volidasini ham dafn etgan va devordagi bu qora gardish shu judoliklarning oʻksik ifodasiday taassurot qoldirardi. Ona bor edi – dunyo yorugʻ, hayot gulgun, munavvar edi, endi ona yoʻq, yotsangiz ham, uygʻonsangiz ham hammayoq qorongʻu, zim-ziyo, aqlarni yoppasiga zulmat qoplagan asrda, yorugʻ niyatlardan koʻra qora qilmishlar koʻpaygan zamonda nurli yupanchingiz, porloq tasallingiz – onangiz bor edi, endi umringizga zimiston koʻchib kirganday, qorongʻulik nurli tasavvuringizni istilo qilganday, yana devorga qaraysiz, devor emas, qop-qora falak, falakning gardishi. Unda bir soʻz tinimsiz aylanadi:

«МАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬМАТЬ...»

Sizga shuning oʻzi yetarli edi. Bemalol chiqib ketishga ham tayyor-siz. Lekin izmingiz mezbonning qoʻlida. Baʼzi savol-javoblar, mulozamatlardan soʻng mezbon aytdiki, «yuring, bir narsani koʻrsataman». Va yarqirab turgan bir xonaga olib kirdi. Xona emas ekan, bilishingizcha, shoirning moʻjazzgina «koʻrgazmalar zali» ekan bu. Hali hech narsaga eʼtibor bermay xonaning shakliga tashbeh izlaysiz. Bir tomoni qabariq, bir tomoni yassi lampa shishani eslatadi. Devorlarda suratlar – katta, kichik romlarda. Shoir hayotining oynaband sahifalari. Har xil shakllar, har xil yuzlar, chehralar. Ana, bir goʻshada mittigina oynaband romda Boris Pasternakning surati. Qotma yuz, abadiyatga yoʻnalgan koʻzlar. Shoirning ilk tasallisi, umid-quvonchi, umriy iztirobi-yu umriy hayrati – Pasternak. Keyin yillar oʻtib u «Oʻn toʻrt yoshda edim» nasriy asarida xuddi shunday sogʻinch va iztirob bilan yozadi. Bu haqda keyin.

Hozircha siz shodsiz, Voznesenskiyni koʻrib, suhbatiga arjumand boʻlganingizdan andak bodilanyapsiz, ana, u «Moskva bilan ilk uchrashuvingizdan esdalikka» deb sizga oʻz surati va uch jildlik zangori muqovali saylanmasiga dastxat yozib beryapti. Uzoqdan sizga Eyfel minorasiday yiroq, kibor tuyulgan bu zot oddiygina inson ekan. Takabbur emas ekan. Nihoyat «safarim qaridi, endi ketayin» deb izn soʻradingiz. Eshikkacha kuzatib chiqdi. Yana sizni noqulay ahvolga solib qoʻyishdan hadiksiraganday soʻradiki, «Pulingiz bormi?» «Yetarli» dedingiz va ichingizda oʻyladingiz: «Oʻn uch yil oldin boʻlganda yoʻq demasdim». Va mana, hozirning oʻzida, bir lahzadan keyin bu

uchrashuv ham, shoirning sizga kitob taqdim qilayotgan holati-yu bogʻaraz tabassumi, xazon boʻlib yotgan qayinzor-u sizning «xayr» degan soʻzingiz ham oʻtmishga, xotiraga aylanadi. Esingizdami, «Oza» dostonida: «Oʻtmish – yoʻlxaltaday mening yelkamda turibdi, sening ortingda esa – kelajak. Kelajak ortingda parashutday shovullaydi».

Toshkentga keldingiz. Oʻn uch yilingiz koʻz oldingizdan hech nari ketmaydi. Kechalari kengliklar hariridan oʻn uch tepalik qoʻzgʻalib keladi, har tepalikka bittadan oq qasr – oʻn uch oq qasr. Oʻn uch besohil daryo, oʻn uch oqbadan terak, togʻlarga, bobongizning bogʻlariga elitguvchi oʻn uch soʻqmoqdirki, firogʻida fasllaringiz kechmishlar. Oʻn uch yil – boʻgʻzingizga tiqilib qolgan oʻn uch armon.

Fasllar umumlashdi.
Qayda gʻam? Qayda sevinch?
Oʻn uch yil oʻtib ketdi,
Andrey Andreyevich!

Radioni titganday
Robotlar meni titdi.
Andrey Andreyevich,
Oʻn uch yil oʻtib ketdi!

Oʻn uch chinqiriq, oʻn uch
faryod, oʻn uch samolyot.
Tun-u kun guvlab yotgan
Aeroportdir xotiro.

Yetnish beshinchi yil. Qish.
Tunlar uzun. Beoxir.
Sheʻringizni tushunmoq
Sopromatdan ham ogʻir.

Menga u payt kerakdi
Ozroq pul, ozroq mehr.
Qars etib sindi orzu,
Toshday qattiq edi sheʻr!

Pargorning ignasiday
Sanchildi tilga satr.
She'riyat – qurbonlikdir,
Shoirlik – mangu sabr.

Sizning «Aksildunyolar»
Dunyolar bo'ldi asil.
Andrey Andreyevich,
Uchib ketdi o'n uch yil!

Mana, Moskva. Meni
Quchar marmar sohillar.
Bir-biriga o'xshaydi
Suvlar, ko'priklar, yillar.

O'n uch oq tulporimga
Yana tashbeh izlayman:
Ostankino minorini
Undov belgisi yanglig'
Yillarga qo'ysam deyman!

* * *

«Telefonda seni Pasternak so'rayapti!»

Dovdirab qolgan ota-onam mendan ko'z uzmay baqrayib turardi. Oltinchidan o'qiyotganimda, hech kimga aytmay men unga she'rlarim va maktub yo'llagandim. Bu – hayotimni belgilab bergan mening ilk qat'iy qadamim edi. Va mana, u maktubimni bejavob qoldirmay meni yo'qlabdi, yakshanba kuni soat ikkida uyiga taklif etyapti...

«Yonoqlari uning, parvoz oldi mahkam qapishgan qanotlarning uchburchak shakli yanglig' titrar edi. Tangrim edi u mening. Qudrat va ulug'vorlik, samoviy muvofiqsizlik mujassam edi unda. Gapirganda yoqa va vujudidan yulqinib chiqib ketishni istaganday iyagini yuqoriga tortib, ko'tarib gapirar edi».

«She'rlar shoir ruhining umr shomidagi billur holatini saqlab qolmishlar. Umrining kuzagini ko'rdim men uning. Muqarrarlikdan ham muqarrarroq kuzak bu. Va shunda bolalik saltanati ro'y ochdi...

Shu kundan boshlab mening taqdirim hal bo'ldi, hayotim sehrli ma'no va maqsad kasb etdi: uning yangi bitiklari, telefon orqali so'zlashuvlar, yakshanba kunlari sot ikkidan to'rtgacha unikida bo'lgan suhbatlar, sayrlar – hamma-hammasi jam bo'lib, mening saodatli va go'daklarcha muhabbat yillarimga aylandi».

«O'n to'rt yoshda edim» asaridan olingan bu parchalardan fasllar va asrlarning nafasi keladi. Avlodlarning avlodlarga intilishi, tiriklikning, orzu-a'molning bardavomligini, o'n to'rt yashar o'smirning hali dunyoviy ifodasini topmagan dunyolarcha mehr-u sog'inchini ko'rasiz ularda.

O'sha mehrnomada yana shunday so'zlarni o'qiydiz:

«U nima uchun meni yo'qladi?»

O'sha yillari u yolg'iz edi, musibatlardan toliqqan, samimiyatga, beg'araz munosabatlarga zor edi. Lekin faqat shular uchungina u meni yo'qladi deb aytolmayman. Oddiy maktab o'quvchisiga, o'smiringa nisbatan uning g'alati muomalalari, do'stlik desa ham bo'laveradigan bu aloqalar ul insonning nimasinidir izohlab berar balki?..

Ehtimol u menda bir paytlar o'quvchilik yillarida Skryabinning oldiga qochib borgan o'zini, o'zining bolaligini ko'rib sevib qolgandir?

U bolalikka qaytishni qo'rsardi. Bolalik chorlovi muntazam davom etardi unda».

Go'yoki Pasternak she'riyati quyuq o'rmonzor-u o'n to'rt yashar Voznesenskiy shu o'rmonzorga tomgan qatra tiniq shabnam edi. Bu tomchida butun-butun dunyolar mujassam, lekin uning mohiyatini hali hech kim bilmaydi – hatto tomchining o'zi ham, ota-onasi ham. Pasternakday ulug' shoirning oldida tomchining afzalligi – bolaligida. Hali shu, xolos. Uni shunday tiniqlikda qoldiraylik-da, qirq yil keyinga, «Советский писатель» nashriyoti 1987-yilda chop etgan shoirning eng mukammal kitoblaridan biri – «Xandaq»ning sahifalariga ko'chaylik, aziz o'quvchi. Zero, ulardan ko'p ibratomuz gaplar topamiz, yillar charxpalagi tinganda, kechgan suvlar ham ayonroq ko'rinadi.

«Ne ajabki, 60-yillarda maydonga chiqqan shoirlar o'zlarining eng yaxshi asarlarini 70–80-yillarda yozishdi. Orzu-maqsadlarning chippakka chiqishi, huning iztirobi she'rlarda o'z ifodasini topdi. She'riyatda avlodlarga ajratish mexanik holatdir. O'sha yillarda men avlodlarni yoshi bo'yicha «gorizontal» va imoni, iste'dodi bo'yicha «vertikal» guruhlariga bo'lib yozgandim. «Vertikal» avlod

haqidagi ana shu so'zlarning mazmunini buzib, N.S.Xrushchyovning jig'ibiyronini chiqarish uchun Kremlida ziyolilar bilan bo'lgan uchra-shuvda unga yetkazishdi. U mening minbarga chiqishimni talab qildi.

Ko'k gumbazli Sverdlov zali po'rim kastumlar, o'sha paytda rasm bo'lgan oq neylon ko'ylaklarning ko'pligidan ko'zni qamashtirar edi. Hadiksirab o'tirgan yakkam-dukkam ijodiy ziyolilarni hisobga olmaganda, hular asosan amaldorlar edi.

So'zga chiquvchilar minbari prezidium stolining oldida, stolga deyarli taqab qo'yilgan edi – u yerda Xrushchyov, Brejnev, Suslov, Kozlov va Ilyichyovlar qator o'tirishgan edi. Bayramlarda ularning o'n metrlik portretlari ko'chalarni bezardi. Kolonnalar uzra ko'tarib borishardi ularni.

Xrushchyov bizning umidimiz edi, hammasini tushunar degan umidda men unga adabiyotdagi ahvol haqida ro'y-rost gapiraman deb o'ylagan edim.

Biroq hayajonlanib, endi so'z boshlaganimni bilaman, kimdir orqa tarafdin so'zimni bo'la boshladi. Men so'zlashda davom etdim. Shu payt orqadan mikrofondan bo'kirgan ovoz yangradi: «Janob Voznesenskiy!» Men so'zimni bo'lmasliklarini so'radim. «Janob Voznesenskiy, – bo'kirardi ovoz, – yo'qoling bizning mamlakatdan, yo'qoling!»

Zaldagilarning, avval o'zini yo'qotgan, so'ngra tantanavor yuzlariga qarab angladimki, mening orqa tarafimda qandaydir dahshatli voqea sodir bo'lyapti. O'girilib qaradim. Mendan bir necha qadam nariroqda Xrushchyovning jazavadan zahil ko'zlari orqaga tortib ketgan, jahldan bo'g'riqqan, jiqqa ter yuzi dod solardi. Hukumat boshlig'i o'rnidan sakrab turarkan, mushtlarini boshi uzra aylantirardi. Hushi joyida emasdi uning. Ter hidi anqirdi. «Janob Voznesenskiy! Yo'qoling! O'rtoq Shelepin yozib beradi Sizga pasportingizni!». Og'zidan aql bovar qilmaydigan mag'zava oqimini qo'yvorgandi go'yo u.

Nima uchun?! Jinni bo'lganmi u? Balki kayfi bordir? (Bunaqasi BMT minbarini hoshmoqlari bilan taqillatganda bo'lgandi bir marta). «Endi tamom!» – deya o'yladim men. Faqat so'zlayotgan paytda hech narsaga e'tibor bermaslik odatimgina ushlab turardi meni.

Zaldan esa, mening orqa tarafimdan, bir maromda shunday ovozlari yangramoqda edi: «Yo'qolsin! Sharmanda!» Birinchi qatordan odamning tabiatini qaytaradigan darajada go'zal yuzli kishi sakrab

turib o'dag'aylab ketdi: «Kremlga oq ko'ylaksiz, galstuksiz kelish ni-masi?! Bitnik!» Keyinroq bilishimcha, xuddi shu kishi Shelepin ekan. «Bitnik» so'zining ma'nisini hamma ham tushunmagandi o'shanda, biroq bir ovozda bo'kirishardi: «Sharmanda!»

Loaqaq biror kishi tushunar degan maqsadda prezidiumga ko'z yugurtirarkanman, Kozlovning shishaday sovuq, ma'nisiz nigohiga to'qnash keldim. Bu dahshatni to'xtatmoqning iloji bormi? Baribir men g'ala-g'ovur orasidan hayqirib aytdimki, she'r o'qimoqchiman.

«Hech qanaqa she'r-perning keragi yo'q! Bilamiz! Yo'qolsin! Yo'qolsin!» – shovqin ko'tarardi mening ortimda zal. Zal shu asnoda qonlarimga tashna edi...

Vu shu payt Rahbarning majaqlangan tovoqday betida yuzaga balqiyotgan qandaydir fikrni ilg'ab qoldim, go'yo unga nimadir ta'sir qilgan-u hushini joyiga keltirayotganday, go'yoki nimadir uning g'ashiga tega boshlaganday, – yoki menga shunday tuyul-dimi? – go'yoki u bo'kirayotgan, tantana qilayotgan olomonda o'zining bo'lajak halokatini ko'rganday, hech kim mushugini pisht deyolmaydigan aslzodalarning behoshroq qudratini his qilganday. Bir yildan keyin xuddi shu olomon uning o'zining boshiga yetadi. Tumshayibon, ranjiganday bo'lib, so'ngra g'udrandi: «Yo'q, may-li, o'qisin».

Men «Qanday kulfat, ayozlar mening vatanimni muzlatar edi! Mening o'rtangan she'rim surgunlar diyorida nelarni kuylar edi?» – satrlariga kelganimda zal ichiqoratlik bilan jimidi. O'sha kunlarda mamlakat hayotining umumiy jarayonida nazoratni yo'qotib qo'yib, Rahbar siyosatni orqaga yurgizayotgan edi. She'r o'qiyotib, men odatdagiday qo'limni ko'tarish harakati bilan ohangni ifodalar edim. O'qib bo'lganimdan so'ng zaldan hir-ikki pastak qarsaklar eshitildi. «Agent! Agent! – baqirdi Rahbar zalga qarab. «Ana xolos, – deb o'yladim men, – agentni chaqiryapti, demak, hozir meni olih ketishadi». U bo'lsa hamon baqirar, dami chiqib ketganidanmi ovozi sal pasaygan edi: «Nega qo'lingizni ko'taryapsiz? Nega bizga yo'l ko'rsatyapsiz? O'zingizni dohiyman deb o'ylayapsizmi?» U bir yarim soatlik baqir-chaqirlardan shalabbo terga botgan, ko'ylagi hadaniga chippa yopishib qolgan edi. Biroq nafas rostlash xayoliga ham kelmasdi...

Men keyin uzoq vaqt 60-yillarning ezgu umidlari, o'zgarishlarning qudratli ko'lami-yu eskicha fikrlash g'ovlari hamda savdogarlarcha

bu o'zboshimchaliklar qanday qilib bir odamda o'z mujassamini topganini bilolmay lol yurdim.

Bir yildan so'ng, nafaqadaligida, u menga yetkazdiki, ro'y bergan voqealar va ularning oqibatida menga yog'dirilgan bo'htonlardan xijolatdaman deb. Men unga nisbatan gina saqlamayman deb aytdim. Eng muhimi, 56-yildan keyin odamlar ozodlikka chiqdi-ku axir».

* * *

Uch kundan beri qora frak kiygan bir qarg'a derazamning ro'parasidagi novdada o'tirib olib ayyuhannos soladi:

– Qar-r! Qar-r! Sendan shoir chiqmaydi! Sendan shoir chiqmaydi!

– Qarg'a, – deyman, – hurmatli qarg'a, juda to'g'ri aytyapsiz, gaplaringiz juda bama'ni, lekin ishlagani qo'yasizmi, yo'qmi?

– Qar-r! Qar-r! Chiqmaydi! Chiqmaydi!

– Hurmatli janob qarg'a, – deyman, – men bu yerda mendan shoir chiqarmikin deb o'tirganim yo'q va qolaversa, menga o'zimning g'amim yetib ortadi, hozircha marhamat qilib, meni tinch qo'ying-da, novdani tark aylang.

Qo'shningizning o'g'li bo'lmaganida, cho'zmasi bilan cho'chitmaganda, kim biladi deysiz, bu olifta qarg'a 2000-yilni ham shu yerda peshvoz olgan bo'larmidi. Xullas, sizga yana hech kim va hech narsa xalaqit bermaydi, xullas, yana tasavvur to'rlarini olisroqqa uloqtiring-da, fikr gulmohilarini ovlang. Xullas, XX asrning tugashiga salkam o'n ikki yil qolibdi, xullas, osmonlarga savolingiz bor edi, xullas, Valentin Katayev aytgan ekanki: «Voznesenskiyni o'qimoq – san'at erur». O'qimoqki san'at ekan, bu she'riyatni yaratmoq, u bilan nafas olmoq, hayot kechirmoq nechog'lik san'at ekanligini tasavvur qilyapsizmi? 1966-yilning ko'klamida siz hali Sariosiyo soylarida qiyqirib baliq ovlab yurganingizda (u paytlar Sariosiyo ariqlarida ham baliq degan mo'jizalar hali bor edi) Voznesenskiy Toshkentda yurgan ekan – zilzilaning qoq markazida – bundan xabariniz bormi?

Toshkentga qaytaylik. Bundan yigirma ikki yil ilgari Toshkentga.

«Toshkent zilzilasi boshlanganda men birinchi reys bilanoq u yerga uchib bordim. Maxsus muxbir sifatida emas, yo'q. Men

uchgan samolyot deyarli bo‘m-bo‘sh edi. Toshkentdan uchgan samolyotlarda esa joy yo‘q edi. Sal bo‘lsa-da yordamim tegar deb o‘ylagandim. Hozir bu juda kulgili tuyuladi. Mening qo‘limdan nima ham kelardi?

Biroq Toshkentda o‘tgan bu o‘n kunim menga ko‘p narsani anglatdi.

Odamlar ko‘chalarda chodirlarda yashardi. Devorlardan tashqarida. Xavf-xatar oldida barcha barobar edi. Silkinishlar kechasi kutilardi. Hech kim uxlamasdi. Chodirlar, lampalarning sarg‘ish gardishlaridek yog‘du sochardi.

Barcha tashvish-xavotirlari, judoliklariga qaramay bular umumsamimiyat, umumbag‘rikenglik, beg‘araz ruhiy birlik va fidoyilik kunlari edi – ehtimol mening hayotimning eng muqaddas kunlari edi bular».

Siz keyin «Toshkent reportaji»dagi mana bu satrlarni eslab yillarga timsol izlaysiz:

*Tomlar yo‘q. Faqat – osmon.
Eng mustahkam tom – osmon.*

Kechasi daf‘atan uyg‘onib ketasiz. Ruhingiz bardam, idrok shabnamday tiniq, ko‘k ummonida yulduzlar oqimi shovullaydi – hammayoq osmon, osmon, osmon. Ochiq derazalardan uylarga oshib-toshib kiryapti osmon, ko‘lmaklarda – osmon, shahar uzra qatlam-qatlam bo‘lib qaynab ko‘pchib yotibdi osmon, go‘yoki bu shahar asrlardan beri osmonni tutqunlikda asragan-u shu kecha ozodlikka chiqarganday – osmondan zamin qadar, zamindan osmon qadar – hammayoq osmon, osmon, osmon! Shunday tunlarda turib insoniyatga ko‘ngilni to‘kib solingiz keladi. She‘r ham shunday tunlarda yozilsa kerak.

– She‘r yozilmaydi, – deydi sergak tortib qorong‘ulikdagi shoir; – ro‘y beradi. Xuddi tuyg‘u va yoki kun botishi yanglig‘. Ruh bir ishtirokchidir, xolos. Yozmadingmi, demak shunday ro‘y berdi.

Siz izza tortmaysiz. Uning oldida o‘zingizni noqulay sezayotganingizni ham unutasiz. (Darvoqe, bu ikkinchi uchrashuv-ku!) Uning haqiqatan ham vaqti ziq. Kechqurun Parijga uchib ketishi kerak. Shaharda hali talay ishlari mahtal. Bir yoqda nashriyot tiqilinch qilyapti – qo‘lyozmani tezroq tushirish kerak. Bir yoqda burchakdagi telefon tinimsiz «pu-pu»laydi, shoirming umid-armoni esa Zoya Borisovna – Oza qo‘ng‘iroq qilinganlarga javob berish bilan andar-

mon, yana bir yoqda – siz. (Xayol orasida tashbeh qilasis: «Sho-irning hayotida bo'sh lahza yoki soniya yo'q. Kunlari pianino klavishlariday tig'iz.) Go'yoki yoningizdagi inson jonli sayyora-yu, siz hozir so'raydiganingizni so'rab olmasangiz agar, yulduzlar changini to'zg'itib g'oyib bo'lib ketadigandek. Darhol fikringizni bir yerga jamlaysiz, o'ylaysizki, bu inson Pablo Pikasso, Mark Shagal, Robert Lou-ell, Pablo Neruda, Nozim Hikmat, Lui Aragon, Uilyam Jey Smit, Gab-riel Garsia Marques, Lyubomir Levchev singari jahon tasviriy san'ati va adabiyotining yirik sayyorolari bilan hamnashin bo'lgan, hamdil va hamdard bo'lgan bu insondan ayni paytda – o'zi imkon berib turib-dimi – ko'p gaplarni bo'tako'zlarday beozorgina uzib olish mumkin. Siz shu asnoda Nozim Hikmatni o'yladingiz va xohish bildirdingizki, mezboningiz bu haqda gapirib bersa.

– *Nozim Hikmatning Boris Pasternaknikiga tashrifi hech yodim-dan chiqmaydi. Mezbon uning sharafiga, kechmishida alanga socha-yotgan inqilobiy mash'ala sharafiga qadah ko'tardi. Nozim javob bera turib, davrada hech kim turkcha tushunmasligidan o'kindi, u nainki mash'ala, balki shoir ham ekanini va hozir she'r o'qib berishni aytdi. U she'rni shiddat bilan o'qirdi. Yuragi og'rir, og'ir-og'ir nafas olardi. Ketayotgan paytda shamollab qolmaslik uchun ko'kragini ko'ylagi ostidan o'zimizda, chet ellarda chiqadigan gazetalar bilan o'rah oldi. Pasternaknikida bunday gazetalar serob edi. Men uni kuzatgani chiq-dim. Shoirning ko'kragida voqealar shildirardi, ro'yi zaminni ko'tarib yurgandek edi Nozim.*

U gapirar ekan, fasllar sizning ko'z oldingizda gazetaday shildirab ketganday bo'ldi.

Olis-olis bo'shliqlardan «OLOXOLUU!!!» degan sado keldi. Xo-tirot tumanlari bosma qog'ozday shimdi bu sadoni. Sizning ayriliq azoningiz edi bu: «OLOXOLUU!!!» Yoqutchada «Hayot-Mamot» degan ma'noni beradi bu so'z. Siz o'sha kunlari, kunlar emas, olti oy «Mangu rizq» – «Вечное мясо» dostoni bilan olishdingiz. Avva-liga qog'ozlarni yirtib tashladingiz, shoirning kitoblarini uloqtirdingiz, bo'ldi, bas, dedingiz, tarjima qilmayman, boshqa qo'limga olsam odam emasman! Lekin bu la'nati «OLOXOLUU!!!» sizni tinch qo'ymadi, qayga borsangiz ta'qib etdi, uyqularingizdan yulqib, yong'in bonglari-day tushlaringizga bostirib kirdi, yo'llaringiz «OLOXOLUU!!!» derdi,

gulgun fasllaringiz – sizning «Navodir ush-shabob»ingiz ayriliq qunlarida «OLOXOLUU!!!» debon xazonrezgiga aylanardi, avtomobil halokatida yosh ketgan akangizning yetti farzandi chirqirab «OLOXOLUU!!!» derdi, dunyodan umidini uzgan bemor otangizning duoni zo'rg'a ko'targan titroq kaftlari «OLOXOLUU!!!» derdi, volidangizning so'lg'in, qovjiragan jussasi «OLOXOLUU!!!» debon unsiz fig'on chekardi, juvonmarg musavvir Shuhrat Abdurashidovning so'nggi tabassumi «OLOXOLUU!!!» deya vido sochardi, «Azizlarim – derdingiz siz, – shoshmanglar, odam bo'lay, hammasi yaxshi bo'p ketadi!» – nahotki odam bo'lmoq uchun qancha yaxshi odamlardan ayrilish shart bo'lsa? – qishloq ortidagi mozorning tilsiz devorlari «OLOXOLUU!!!» derdi, siz otangizning xokidan diydalaringizga xas olib «Olloh, o', olloh!» derdingiz, «Ota – derdingiz, – otajon, men keldim, birinchi kitobim chiqdi!» Yillar jim. Asrlar jim. Dunyo bezabon.

Oloxoluu! –

Do'stlarni qancha ko'p dafn etsang, nom-u

Yodlardan shuncha ko'p o'rtanadi jon.

Men shuncha dafn etyapman-u...

* * *

– *Lorkani yaxshi ko'raman, – deydi shoir. – Uning uchayotgan qayiq yanglig' yengil, teatr zalining yuqori arki singari gulduros solib turguvchi, radiolokatorning zar qog'ozi misol sezgir, oranj po'stlog'iday achimtir va o'tkir is taratguvchi ismini yaxshi ko'raman... She'riyat – hamisha inqilob. Yangicha jazo usullari qo'llaniladigan qamoqxonalardagi kirdikorlar uchun Lorkaning ichki hurriyat, erkinlik, jo'shqinlik ila yo'g'rilgan qo'shiqlari inqilob edi. Beton zindon devori fonidagi lola isyon, qo'zg'olon bo'lib tuyuladi.*

Shoirilar katta mehrga muhtojdirlar, deb yozgan edi daholardan biri. Kuychining yalang'och yuragi tikansimga tirnalayotgan paytda mehr haqida qanaqa gap bo'lishi mumkin? Men shoirlarning fojiali yo'li haqida o'ylaganimda, Birinchi jahon urushi vaqtida gaz bilan zaharlangan farang shoiri Pol Elyuarni eslayman. Bo'g'ilyotgan shoir jussasi ramziy. Nafas olishga havo yo'g'-u, kuylashga yo'l bo'lsin!

Siz shu asnoda Andrey og'aning «Asr qanday bo'lsa, shoir ham shu» degan satrini eslaysiz va yana uning «O» sarlavhali, davr-u za-

monning qon tomirlari gupurib urib turgan qissasidagi «Qo'lyozmalar yonmaydi, yo'q, mualliflar yonadi» degan so'zlarini ko'ngildan o'tkazasiz. U esa davom etadi:

– *Metafora – shakl motori. XX asr – evrilishlar, metamorfozlar asri. Bugungi kunda qarag'ay daraxtini qay tarzda izohlash mumkin? Sun'iy tola debmi va yoki raketaning oynasimon plastmassasimi? Mening silon jemperim kechalari oqqarag'aylar nomini olib alahsiraydi. Uning tushlarida paxmoq ajdodlarining ignabarglari shovullaydi.*

Siz yana mulohaza sohilidasiz. O'ylaysizki, shoir – qayda Dard bo'lsa, o'sha yerda deb. Aslini olganda-ku bugungi kunga kelib yer kurrasining insoniy dard-u iztirobsiz biron-bir go'shasi qolmagan bo'lsa-da, bu dumaloq globus dengizlar va daryolar, mamlakatlar, mintaqalardan emas, insoniyatning dard-u hasratlaridan tarkib topgan esa-da, baribir o'ylaysiz: kimdir ko'zyoshlarni artishi kerak-u, kimdir zada ko'ngillarni, hech bo'lmaganda beg'araz, insoniy so'zlar ila ko'tarmog'i zarur-ku! Suhbatdoshingiz bundan o'n yil burun bo'lgan bir gurungda bunday degan ekan: «She'riyat hozirgi kunda tiriklikni, birinchi navbatda, butun odamzodni asrash jamiyatidir». Keyingi yillarda odamzod boshiga tushgan eng og'ir kulfatlardan biri Chernobil fojiasi bo'ldi. Bu masalaning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va xalqaro tomonlarini bir chetga qo'ysak-da, ma'naviy jihatlariga e'tibor bersak agar – shoirning so'zi bu o'rinda qanday rol o'ynaydi? Albatta, she'r yo doston bilan kulfatning oldini olib va yo o'lganlarni tiril-tirib bo'lmaydi. Biroq... Yaxshisi shoirning o'zi javob bersin bunga.

Kechir, men insonni kechirgil, inson –
Rossiya, Yevropa, tarix qoshida.
So'qir ofatlarning vahshati bu on
Yurtim va asrimning tushmish boshiga.
Kechirgil, men faqat insonman o'jiz,
Nobel toji bilan siylangan umid.
Chernobil kulfatin qaytarib, kuyib
Ketganlar, Siz meni kechiring xolis.
Aybdor fan yo odamzodmi – qanday sho'rish bu?
Bugun nima bo'ldi? Erta ne bo'lar?
Nedin ogoh etdi bizni Chernobil?
Nahot nazoratsiz qolgan urush bu?



Alvido, aldanchi ilinlar, xayr.
Hali ham kech emas, esing yig' dunyo!
O', Xudo! Men bugun xudo bo'lsam gar,
Nochor qolganing-chun kechirgil, Xudo!
Xudodir o'tlarga o'zni tashlagan,
Reaktorni to'sib, o'zi yongan jon.
Kiyev, Odessalarni qaqshab asragan,
Insonday yo'l tutdi, chunki u inson.

Hozirgi kunda uch asr umrini ko'rgan chinorni odamzod o'zining elektr arrasi bilan besh daqiqada yig'ib saranjomlar ekan.

– *Madaniy yodgorliklar, – o'ychan davom etadi shoir. – Samarqand, Buxoro, Xorazm. Menimcha, o'tmish yodgorliklarini asrash jamiyati bilan bir qatorda kelajak obidalarini saqlash jamiyatini ham tuzmoq kerak.*

Jurnalist Gennadiy Javoronkov savol beradi. Bu savol hamda shoirning unga qaytargan javobi bevosita yurtimizga, biz-u sizga daxldor bo'lganligi sababli to'liq keltirmoq joiz.

– *Akademik A.Yanshin yozdiki, Sizning dostonida alohida bob bo'lgan Baykal haqidagi she'ringiz ikki nuqtayi nazarning kurashida yuzlab ma'ruzalardan ko'ra ko'proq ma'naviy-tarbiyaviy foyda keltiradi deb. Hozir «Xandaq»ning qozoqcha nashridun tushgan qalam haqini Orolni qutqarish fondiga o'tkazdingiz. Nima uchun Orol taqdiri bugungi kunda sizning eng dardli nuqtalaringizdan biriga aylandi?*

– *Orolni halokatga keltirgan kimsalarning axloqsizligi men uchun «Xandaq»da tasvirlangan jinoyat bilan bab-barobardir. Buni qarang: Orolni «tabiat xatosi» deb ochiqchasiga aytishgacha borishdi-ya! Dengiz qotillari o'zlarini tabiat xatosi deb hisoblamaydi. Baykal taqdiri qozoq, turkman, qoraqalpoq, o'zbek shoiri uchun nechog'lik dardli bo'lsa, Orol taqdiri men uchun ham shunchalik dardli, armonlidir.*

So'zni shu yerda, «armonli» jumlasiga yakunlasangiz ham bo'lardi, biroq sizning yana bir kichkina armoningiz bor, bu armon Parij, London, Nyu-York, Florensiya, Chikago, Vankuver, Sofiya singari shaharlarning kitobxonlari qalbini zabt etgan, Angliya, AQSH, Polsha, Germaniya, Chexoslovakiya, Bolgariya, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Yugoslaviya singari ko'plab mamlakatlarda kitoblari chiqayotgan, she'rlari chop etilayotgan bu jahongashta shoirning, «yarim umri aeroportlarda o'tgan» bu sayyor shoirning, Nyu-York adabiyot

va san'at akademiyasi, Mallarme nomidagi Fransiya shoirlar akademiyasi, Bavariya san'at akademiyasining faxriy a'zosi bo'lmish bu jahonshumul zotning hazrat Alisher Navoiy haqidagi fikrini bilish istagi ediki, so'ramoqqa jazm etdingiz.

– *Alisher Navoiy – ulug', betimsol shoir, u haqda biror bema'ni gap aytib qo'yishdan qo'rqaman. Navoiyning ming yillarga tatirli ahamiyati bor. Ayni choqda u bizga har kuni kerak. Uning she'riyati mashaqqatlarni yengib o'tishning, mehr-muhabbatning yorqin tim-solidir. Men o'zimning «Shoyad» dostonimni yozayotganimda ko'z o'ngimda Alisher Navoiy yaratgan oshiq-ma'shuq qad rostlab turgan edilar. Toki oshufta qalblarning buyuk muhabbati yashar ekan, Navoiy ham muhabbat singari abadiy barhayotdir.*

Bu samimiy so'zlardan ko'nglingiz yorishadi. Shoir bilan xayrlashasiz.

* * *

Moskvaga qaytishdan oldin Peredelkino hovuzining bo'yiga borasiz. Esingizdami, shoir «O'n to'rt yoshda edim» asarida qanday mehr, qandayin iliq sog'inch bilan tasvirlagandi bu hovuzni!

Kuz. Yuksak qarag'aylarning zarhal yelkalaridan o'rmonga kuz quyoshining oltin kokillari quyiladi. Chirik xazonlarda ham bir ilqlik borday. Ana, qirg'oqda navniholgina bir qayin. Yesenin she'riining barg yozgan satriga o'xshaydi. Hovuz osmondan sokin. Qirg'oqdan hovuzning ichiga ag'anagan qarag'ay tanasida, novdalarida qator o'rdaklar o'tiribdi. O'n uchtasini sanaysiz-da, yillarim, deysiz. Yana hovuzning ichiga cho'kkan osmonga tikilasiz. O'ylaysizki, yillar, tillar, ellar boshqa-boshqa bo'lgan bilan dillar bir, dil osmonlari, aql-u zakovat, ma'naviyat osmonlari bir, mushtarak, burjlari bir-biriga to'g'ri keladi. Ya'nikim «*Yaxlit osmon bilan tirikdir inson*». Va slavyanlarning ezgu udumi bo'yicha hovuzga tanga tashlaysiz. Toki bu yerlarga yana qaytib kelsangiz, toki dil osmonlariga eltguvchi so'qmoqlaringizni xazon qoplamasin.

1988, oktabr

O'ZBEK KITOBXONIGA MUROJAAT

Mening kitobim o'zbek tilida, Koshg'ariy va Navoiylar tilida, madaniyati Buxoro, Samarqand va Xorazmda me'moriy qadamjolarini yaratgan elning tilida chiqayotganidan mamnunman. Bu sharif shaharlarga butun yer yuzidan ziyoratchilar kelishadi. Men ham bu yurtni ziyorat qilganman. Mening nazarimda rus madaniyatining g'arb ta'sirida bo'lish jarayoni juda uzoqqa cho'zildi. Biroq ulug' Xlebnikov zamonidan boshlab rus she'riyati sharq daholigi tomon yuz burdi. Shuning uchun hozirda yangi chiqayotgan o'zbek shoirlaridan men ko'p narsa kutaman.

Mening Toshkentga haj safarim zilzilaning og'ir kunlariga to'g'ri keldi. Hali hanuz esimda: men Toshkentga deyarli bo'm-bo'sh samolyotda uchib keldim. Toshkentdan uchadigan samolyotlar esa liq to'la edi. Keyinchalik, Toshkent zilzilasining o'sha fojiaiy kunlarini «ehtimol, mening hayotimning eng muqaddas kunlari edi» deb atadim. Bu o'rinda odamlarning xavf-xatar qarshisida ko'rsatgan ma'naviy jo'shqinligi-yu birodarligini nazarda tutganman. Toshkentning bedor ko'chalaridagi tungi hayot men uchun kashfiyot edi o'sha paytda. Odamlar turmush qoliplarini tark etishgandi. Bu – hozirgi qayta qurish iqlimi vujudga keltirgan muhitning ilk epkinlari, dastlabki sezgilari edi, ehtimol va mualliflari o'z qalam haqini Toshkent fondiga xayr qilgan «Звезда Востока» jurnalining sal keyinroq chiqqan maxsus soni ham dadilligi va halolligi bilan hozirda baquvvat nashrlarga aylangan jurnallarning birinchi qaldirg'ochi bo'lgan bo'lsa ajabmas. Afsuski, o'shanda jurnalga po'pisa qilishdi va bu nashr o'tirib qoldi.

Buni qarangki, Sirojiddin Saidov tashabbusi bilan ushbu kitobga jamlangan she'rlar, dostonlar-u nasriy bitiklar men uchun eng qadrli asarlardir. Ular hozirgi kunda «qayta qurish» deb atalayotgan poklanish jarayonining g'oyalari ila sug'orilgan va ma'naviyatga yo'naltirilgandir. Baykal haqidagi she'r o'zbek kitobxonlari qalbida aks sado beradi degan umiddaman. Chunki, ayni paytda Orol dardi mening bag'rimni ham o'rtaydi. Kitobxonga murojaat sifatida berilayotgan mazkur so'zboshini cho'zib o'tirmayman, sababiki, asosiy murojaat bu she'rlarning o'zidir.

*Andrey VOZNESENSKIY,
Moskva viloyati, Peredelkino bog'i,
1988-yilning 5-oktabr choshgohi*





DO'ST ZIYOSI

Men do'stimni kutyapman. Darvoza ochiq,
Ko'cha chirog'in ham qo'yibman yoqib.

Men do'stimni kutyapman, kimsasiz tomon,
Hayot kutish nuri bilan nurafshon.

U yo'lda – yong'inga yelganday yelar,
Men og'ir kunida kelganday – kelar.

Kelar. Tomlar uzra nurga qorishib
Qarag'ay daraxti turgay yorishib.

Yaltilab chopar it. Sen do'stmi, bo'ynoq?
Sening o'z g'amlaring yetarli biroq...

Begona chiroqlar to'ldirar tunni –
Men axir kutyapman do'stimni.

Kelaman degandi to'qqizdan keyin.
Hamma kino ko'rar bunda betayin.

Adovat kiradi. Ochmayman bag'ir –
Men do'stimni kutyapman axir.

Yillar ham o'tyapti – u do'st hamon yo'q.
Nurlar tabiatdan bo'lar tamom yo'q.

Jannatdami, jahannamda ko'rishamiz yuz,
Umr bo'yi do'st kutyapman, umr bo'yi do'st!

Kelaman degandi – taqdir, qaragil,
Taqdir, sen yo'llarda uni asragil!

DONORLAR

Har kishi bir lahzadan,
Har kishi bir lahzadan
Insoniyatga bersaydi –
Kim ham inkor qilardi? –
Buyuk tirik qolardi.

Har kishi bir soatdan,
Har kishi bir soatdan
Insoniyatga bersaydi –
Kim ham inkor qilardi? –
Shunda butun buyuklar
va buyuk tuyulganlar
So‘zsiz tirik qolardi.

Har bir kishi bir hayot,
Har bir kishi bir hayot
Insoniyatga bersaydi.
Shunda bor tirikliklar,
bor hayvonlar, sigirlar,
Dashtlar tirik qolardi.



MARSIYA

Gulchambarlar qo'ying dengizga.
Bordir shunday insoniy udum –
halok bo'lgan jangchilarning nomlari uchun
gulchambar qo'yishar dengizga.

Bunda baliqchilar sho'ng'ib, o'n ming tik
oppoq qoq suyakni oldilar topib,
aytolmasdan ismlarin, sabablarin ham,
Yuzlarini ozod tutib yorug' dunyoga
suv qa'ridan ko'kka qarab intilar ular.
Gulchambarlar qo'ying dengizga.

Dengiz mozoriga mangu zanjirband,
sassiz chayqaladi umurtqalari –
ismsiz, qo'rqinchli marvaridgullar.
Gulchambarlar qo'ying dengizga.

Birovining oyog'ida chelakday etik,
Birovining ko'kragida notavon tumor.
Nidolar ham madad bermas bevalariga,
Otmadilar, tiriklayin g'arq etdilar zor,
Jismlarin tark aylagan jonlarin izlab,
suv sathida jimirladi chambarak izlar.

Gulchambarlar qo'ying dengizga
Qudratli chinqiriq kuylardan.
Nastarin, sumangul, atirgullardan
gulchambarlar qo'ying dengizga.

Gulchambarlar qo'ying zaminga.
Unda yotar gulday yigitlar.
Nastarin, sumangul, atirgullardan
gulchambarlar qo'ying zaminga.

Yonib ketgan uchuvchilarning
xokin o'rang sof gullar bilan.

Parvozoldi ichgandingiz siz ular bilan.
Gulchambarlar qo'ying osmonga.

Toki samolardan olamga boqib
Tortish qonunini mensimay ular,
kelar avlodlarga so'ylasin gullar:
«Gulchambarlar qo'ying tiriksiz toki».

Gulchambarlar qo'ying Vaqtga,
Shu mangu olovda biz yonib ketdik.
Eng toza, muattar gullarni eltib
gulchambarlar qo'ying olovga.



TUSH

Maydonda sudlashar biz, uch o'g'rini.
Men ham jon chekaman – o'g'irlagan kim?

Bunisi aybdormi va yo unisi?
Biroq bilaman-ku – o'g'ri men o'zim.

Bunisi tan oldi «o'g'ri men» debon.
Qo'yar ikkinchisi ashyolarin jim.

Aldayotganim-chun quvlashar meni.
Biroq eslayman-ku – o'g'ri men o'zim.

Xazinani ochgum uyimga borib,
sen taqqan marvarid turar yarqirab...

Tan olmoqlari-chun o'g'riligimni
guvohlik berishga sen yo'qsan biroq.



MIKELANJELO TAVALLOSI

Xudoyim, men ham bir novdangman, axir.
Meni olomonga tashlading nega?
Xudoyim, Senga ne qiluvdim, gapir?
Men nimani qilmovdim Senga?



MAYAKOVSKIYNING SOBIQ MATN TERUVCHI KOTIBASI Y.YANITSKAYAGA XAT

Sizga Mayakovskiy qarz edi nedir.
Men qaytaraman.
Siz kechiring – u erta ketdi.

Mening hayotimni belgilar endi
Lermontovlar, Lorkalar uchun
tuganmas qarz to'lovi bugun.

Dahshatlidir bizning qarz behad,
U qon bilan to'langay faqat.

Otalar va bobolar, rahmat.
Davron charxi, aylangil tun-kun...
Biroq men-chun kim to'laydi, kim,
bari uchun, barchasi uchun?



ATROF-MUHIT MUHOFAZASI BAHSIDA TASHLANGAN LUQMA

Ko'rodursan tomir yoygan
razolat vahmasini –
shukrlarkim, biz o'lamiz,
ko'rmaymiz hammasini.

Ko'rodursan maysalarning
muloyim hamlasini –
shukrlarkim, biz o'lamiz,
buzmaymiz hammasini.



TUN

Osmonda yulduzlar ko'pdir naqadar!
Xuddi
havodagi mikroblar kabi...

* * *

Tarixlarni kezgancha kuyladi mening qonim –
yarim diniy, yarim dehqoniy.

Yarmi yerda, samoda yarmi –
mahkum hayot uchun o'zim aybdormi?

Genetika qurshovida, iskanjasida
uyg'onadi sahroga xos nimadir birdan –

dalalarda qamchilarning ostida dodi –
O'zga sayyoralik qarol faryodi!



O'TISH JOYI

Haqiqat izlabon ezilgan edim,
Poyezd o'tishini kutib bu betda.
Samoga ko'ndalang yozilgan edi:
«Meni tashlab ketma».

Siyrak o'rmonlarga o'girildim zor –
Bu qanday xat erur? Bu ne xotima?
«Meni tashlab ketma, – o'tardi qator
Yuzlar, chehralarda, – meni tashlab ketma».

«Tashlab ketma», – debon chopdi darchalar.
Konvertning jiyagi singari yo'l-yo'l
Shlagbaum titradi: «Ketmagil tashlab...»
Hammasi berkildi. Tamom. Endi yo'q.

Qo'lingni oldindan ilg'ayman birdan.
Vagonlar ortidan chopdim men yetmay.
«Meni tashlab ketma» – degan bekatdan
Poyezdlar ketardi, «Meni tashlab ketma».



REZANOVNING O'LIMOLDI QO'SHIG'I

Men o'laman oddiy yo'taldan
yarim yo'lda,
haqiqat-u mo'jizaning yarim yo'lida,
yarim yo'lda, deyarli yengib,
shohlar bilan o'chakishib,
shamollashdan o'laman endi,
kechirgil meni,
biz erta tug'ildik,
niyatlar dilda so'ldi,
oramizdan eng yaxshilar
uzildi yarim yo'lda,
biz – arosat bolalari,
ismimiz – yarim yo'ldir,
kechirsang bo'ldi.

Bizning avlod erta tug'ildi –
Musofirlik yotdir bizga, o'z uyimiz zindondir.
Tirqiragan avlodimiz yakka va yakka
Haqiqatga yetmoq bo'lib xor-u sarsondir.
Bu Rossiya imperiyasi – qamoqxonona, ko'r.
Xorijda ham bundan battar, ikkovi bir go'r.
Hayhot, erk yo'q na bu yerda, na u yerda ham,
Qayga boshlay kemani man? Bilmam, kapitan.

Kechir, bizdan hech kim
Yo'lni yenga olmadi,
Yo'lning o'zi bor edimi oldda,
bormidi?
Ozodlik va Rossiya, meni kechirgin,
umrimda men butun yo'lni zabt etolmadim.

Kechir meni, zamin, seni tashlab ketgum, bas,
Barchasini aytolmasman...
Vudud borar sarg'arib...
Yarim bo'lib yaralganlik
bizning aybimiz emas,
esiz, vodarig'...

QUM ODAM

(Bolalarga)

Qum odam shoshib borar,
Pirpirab chopib borar.

Elakday teshigi ko'p
maykasi yarashgan xo'p.

Bunchalar shoshilasan
Yugurma, sochilasan.

Ammo eshitmas odam,
yugurgani yugurgan.

.....
Ma'yus odam yo'q endi,
Qoldi qumloq yo'l endi...

* * *

Biz sen bilan badavlat edik!
Chordoqlarimiz ichra ilgari
o'ynardi g'uborga o'rangan nurlar,
oltin paypoqlarni kiygan singari.

* * *

Ziyolarga cho'mgan daraxtlar
shu'lalanib turibdi sokin,
go'yo oppoq patqalamlarday –
sen faqat yozgin!

«OZA» DOSTONIDAN PARCHALAR

Ave, Oza, Tunmi bu, uymi,
ko'zyoshlarni yalab itlar uvlarmi toza,
sening nafasingni turibman tuyib,
Ave, Oza...

Jonda bir hadiklar aylar qiyomat,
men nomard qismatga nag'malar yoza,
bildimmi muhabbat – buyuk riyozat?
Ave, Oza...

Yoningda hech kim yo'q – naqadar dahshat.
Birov bo'lsa yana beshbattar dahshat!
Yetti iqlimlarga husning ovoza!
Ave, Oza!

Siz dardlar, odamlar, parovozlar,
Sizdan o'tinaman uni ehtiyot qiling.
Hargiz baxtsizlikdan kuymasin diling,
Ave, Oza...

Muqobil tomonlar yorishdi oxir.
Bergil, bor o'kinch-u dardingni olay.
Men ma'yus qutbiman ohanraboning,
sen – yorug' tomoni. Qol shundoq porlab.

Hargiz ko'rsatmasin qayg'uranimni.
To men ham ko'rmayin qayg'u, g'amingni.
Yoshing to'kirmasman mamotim bilan,
Ko'ngling cho'kirmasman hayotim bilan.

O, Oza. Bor bo'lgil, beg'ubor ochun.
O'tkinchi narsalar tinmayin o'tur.
Seni o'ksitmasman o'tganing uchun.
Kelib turganing-chun senga tashakkur.
Ave, Oza...



IV

... Orqaga – daryolar orqaga, o‘z sarchashmalariga tomon guvillab oqdilar.

Orqaga – mototsiklchilar orqalari bilan finishdan startga qarab yeldilar.

Ming yillik chinorlar hammaning ko‘zi oldida nozik niholchalarga aylandi – orqaga!

O‘q Mayakovskiyning yuragidan qaytib chiqib, ko‘ylakda o‘zi qoldirgan teshikdan lip etib 4-03986 raqamli mauzer-to‘pponchaga joylashdi. To‘pponcha esa chig‘anoqday buralib stolning g‘aladoniga tushdi...

Sening otang tarixchi. – Insoniyat umrining teskari xususiyati bor, – deydi u. – Insoniyat keksalikdan yoshlikka qarab yuradi.

O‘rta asrlarni olaylik. Keksalik. Inkvizitsiyaning ajin bosgan devorlari.

Keyin – Uyg‘onish davri. – Bashariyat kuzining iliq-ochiq kunlari. Bu – hamma narsani boshdan kechirgan go‘zal ayolday, yetilgan hosillar va badanlar ichra ayshini surayotgan davr.

XVIII asrning umid-u xiyonatlari, sarguzashtlari bilan XIX asrning o‘ychan homila davrini sanab o‘tirmaymiz...

XX asr ibtidosi... Inqilobning gurs-gurs odimlari!

«Bizlar – yer sharining birinchi muhabbati...»

«Men kelajak haqida, – deya davom etadi tarixchi, – barcha orzular ro‘yobga chiqqandan keyingina o‘ylayman. Texnika yaxshi qo‘llarga tushsagina yaxshi. U qo‘rquv soladimi, nima? Bo‘lmasa, orqaga – ibtidoiy jamoa g‘orlariga qaytaylik...»

Uning sochlari oqargan, yuz-beti qip-qizil. Kuchuklar va bolalar unga qarab jilmayadi.

VII

Sening yoshing o‘n yettida. Gimnastikadan so‘ng entikib turibsan hozir. Darvoqe, ismingning ahamiyati yo‘q. Siklotronni tushingda ham ko‘rmagansan sen.

Kimdir ahmoqlik qilib dengiz sohiliga bir juft simob fonusini suqib qo‘yibdi. Biz ana shu fonuslar oldidan – ikki tomondan bir-birimizga peshvoz bormoqdamiz. Yelkalarimizga qo‘sh nur uriladi.

Va qo'llarimizdan avval, oydinlik sukutiga o'rangan tirik, iliq so'zlarimiz birlashadi.

Menga, sen hamisha peshvoz kelayotganday bo'lib tuyuladi!

Odamlarning ensasi doimo moziyga qaragan bo'ladi. Trolleybus eshigidagi navbat singari bizning ortimizda vaqt turibdi. Mening yelkalarimda – safarxaltadain o'tmish, sening ortingda – kelajak. Kelajak ortingda parashut singari shovullaydi.

Birga bo'lganimizda – sendan menga kelajak, mendan senga esa o'tmish o'tayotganini anglayman men. Go'yo bizlar qumsoatlarmiz.

Sen kelajak sarqitlaridan naqadar qiynalasan! Cho'rtkesar, samimiysan sen. Sen hayratlantiradigan darajada nodonsan.

O'tmish sen uchun hali oldinda, u o'zgarishi mumkin. «Napoleon, – deyman men, – taniqli davlat arbobi edi». Sen esa «Ko'ramiz!» deysan.

Holbuki, kelajak sen uchun muqarrar va shak-shubhasizdir.

«Ertaga biz o'rmonga bordik», – deysan sen. O', ertasiga o'rmonning shovullashini ko'rsang edi! Archa daraxtining qurigan ignabargi hali hanuzgacha chap tuflingda ilinganicha turibdi.

Sening tuflilaring – o'tkir uchli, bunaqa poyabzalni endi kiyishmaydi. «Hali kiyishmaydi» – kulasan sen.

Men o'zim bilan o'tmishni to'sishga harakat qilaman – toki sen qiynoq-azoblarni hargiz ko'rmagil!

Sening sadaf tishlaring – labbo'yoqdan ol.

Sen ba'zan mening xohish-ra'yimga bo'ysunishga harakat qilasan. Shunda senga nimadir tinchlik bermayotganini payqab qolaman. Nimagadir tipirchilaysan. «Qo'ysang-chi...»

Ko'nglingni to'kib bo'lgach, sen xursand, xorijiy tilda so'zlashganday bidirlab ketasan: «Men yaxshigina estetik zavq oldim!

Ilgari men sendan qo'rqardim... Sen-chi, sen nimani o'ylayapsan?...»

Uning ismi balki Ozadir?

IX

Nima qilib qo'ydim men, do'sti aziz!

Seni o'ksitmasmi ushbu satrlar?

Men senga

mangulik baxsh etdim desam,

ko'rgil, topshiribman xavf-u xatarga.

Kim u, bu dunyoda eng buyuk xudbin,
kim u, bu dunyoda shuncha past ketdi:
«Bir lahza to‘xtagil ajoyib lahza?!»
Yo‘q, yo‘q, to‘xtamagil, sen davom etgin!

Hayotni ot yanglig‘ tushovlash nechun?
Hayot o‘zi nadir?
O‘zaro darddir.
Mangu tiriklik bu — qotgan harakat
xuddi kinolentasidan kesilgan kadr.

Mangu tiriklik bu – hayvonot bog‘i.
Unda fig‘on aylar ne-ne ayollar.
Duch kelgan har nokas barmog‘in nuqib,
xolingga termilib, husning baholar.

Seni ko‘rmay yashash qanchalar yomon,
yomon – tiqilinchda ko‘rishsak agar.
Unda har qanday turq ko‘zini qadab,
tiqilib teginsa senga – og‘ir qanchalar!

Sen-ku kechirgaysan dard-alamlarni,
Ozurda ruhni kim kechirar? Unda
har qanday g‘iybatchi hayoting bulg‘ab
go‘sh t chaynar mana shu satrlar uzra!

Satrlar – panjara. Xayr endi, Oza...
Biroq manglayimga tashlanadi qon:
telefonda kaftlarimga kapalak kabi
tovushing urilib saqlaganda jon...

X

Sen bugun «Berlin» restoranida tug‘ilgan kuningni nishonlayapsan. Unda shiftda ko‘zgu o‘rnatilgan.

Kelgan mehmonlar ana shu ko‘zgudan boshlari pastga tomon su-malaklarday osilib olgan. Shiftning qoq o‘rtasida esa yelinday yum-shoq, pushtirang tort suqilgan shamlar ila osilib turibdi.

Tort atrofida ko'rkam qora kastumlarning rozetkalariga burab qo'yilgan lampochkalarday tepakallar va sochlar yaltiraydi. Yuzlar ko'rinmaydi. Kimningdir tepakali paypoqdagi teshikday kichkina ekan. Uni siyoh bilan bo'yab qo'yish ham mumkin.

Boshqa birovning tepakali esa yetilib pishgan olmaning po'st-log'iday harir, undan kallaning ichidagi uch fikr (ikkitasi qora, bittasi dumbul, yetilmagan) uch dona urug'day ko'rinib turibdi.

Oliftalarning soch farqlari aqchadonlar yorig'i yanglig' yarqiraydi.

Qorachadan kelgan xonimning ensasida harir lenta bilan turmaklangan sochlari shift bo'ylab pashshaday o'rmaydi.

Yuzlar ko'rinmaydi. Biroq har kimning qarshisida moziy ekspozitsionatlar oldidagi lavhalar singari kimning qayerda o'tirganini bildiruvchi qog'ozlar qo'yilgan.

Faqat bitta likopchada hech narsa yo'q, u rozetkaday oppoq.

«Ayting-chi, bekaning chap yonidagi o'rin nima uchun bo'sh turibdi?»

«Balki generalni kutishayotgandir?», «Ehtimol, birov qazo qilgandir?»

Yerda men o'tirganimni hech kim bilmadi. Men ko'zga ko'rinmayman. Hech kim ko'rmaydi meni. Seni qutlagani kelayotgan bashang zotlar menga qoqilishadi, sanchqilar ila tirnashadi.

Sen yonimda o'tiribsan, biroq sellofan xaltadagi sovg'a singari bag'oyat begonasan.

Zamonaviy shoirdan so'rashadi: «Eh, bundayroq biron narsa aytib bersangiz-chi! Hayotiyroq bo'lsin, hech kim eshitmagan, modern deydimi, nima deydi, o'shanaqasidan...»

Shoir o'rnidan turadi (aniqrog'i vertolyot narvoniday pastga tushadi). Uning ovozi g'alati, o'ziga nisbatan aksildunyorroq jaranglaydi go'yo...

Shoir she'r o'qiyotib, yuzini orqaga tashlaydi. Shunda uning oppoq basharasida, xuddi likopchadagi bulg'or qalampiri singari burni yarqirab ketadi.

Hamma qiy-chuv baqirgan, chaqirgan: «Ofarin! She'r degan mana bundoq bo'пти». Qadahso'zning zo'rligini qarang!» So'z keyingi shoirga beriladi. U g'irt mast. Shiftdan pastga qarab osilib qoladi va sochiq singari quriy boshlaydi. Uning g'o'ldirashidan faqat bir necha so'zningina ilg'ash mumkin:

– *Kema erib ketayotganday. Onega orti.
Fatvo ber, cho'mayin sening ko'lingga.
Oza oldi edi shu paytgacha
mening hayotim.
Ozaayroliqni ko'rsatma manga...*

Hamma jim bo'ldi.

So'z soqiyga beriladi.

U soatning uzun kappiriday pastga qarab tebranadi. «Chaqa-loq sha'niga so'z». Ovozi restoran shiftidagi reproduktordan chiqayotganday taraladi. «Bekaning yangitdan tug'ilgani uchun va men cho'qintirganim... Iya, darvoqe, chaqaloqning ismi nima edi?» (Hech kim bilmaydi.)

Bularning bari nimanidir naqadar eslatadi! Va osilib turgan bu dunyo tagida o'z shoiri, o'z soqiysi bilan ikkinchi teskari dunyo o'rnashib oldi. Ular qumsoatlarday simmetrik holda, ensalari bilan bir-birlariga tegay-tegay deb turishibdi. Biroq bu nima? Men qayerdaman? Qanaqa arosat bu? Qandayin telba-teskari, oynaband borliq bu? Qanaqa teskari mamlakat bu?!

Sen-chi, sen qayerdan kelib qolding bu yerga?

Zum o'tmay... Zum o'tmay ko'ribsizki, sindagi qator tomchilar singari hammasi uzilib tushadi, chilparchin bo'ladi!

Nimadir qilmoq kerak! Seni muzlatib qo'ymoq, bu ko'zguni esa chil-chil sindirib tashlamoq kerak.

Shularni o'ylab men qizil ikra surilgan buterbrodni beixtiyor yutib yuboraman.

Biroq nima uchun dudlangan son go'shti singari qarshimda osilib turgan qishloqi klassik dahshat bilan mening oshqozonimga qaraydi? O', xudo, men ko'rinmas bo'lsam ham buterbrod bor narsa-ku, u ko'zga ko'rinadi-ku! Buterbrod liftidagi qizil kamzul misoli mening jismim bo'ylab siljib boradi.

Klassik qo'shnisiga nimanidir shipshiydi.

Mish-mish bir zumda marjonlardagi ip singari kalladan kallaga o'tib boradi.

Tillarning qizil ilonlari quloqlarga buralib kiradi.

Hamma buterbrodni kuzatadi.

«Bizga qayerdagi mayda baliqni qo'yishibdi, buterbrodni qarang», – dodlaydi klassik.

Berkinmoq kerak! Axir ular meni bilib qolishsa, senga keyin kim yordam beradi, kim ko'zguni urib sindiradi?!

Men sakrab o'rimdan turaman-da, polga to'shalgan poyandoz gilamga yotib olaman. Yonimda stul oldida bir juft tuflicha turibdi. Ko'rinib turibdiki, ular kimningdir oyog'ini siqqanga o'xshaydi. Chap poyi o'ng poyining pinjiga suqilgan. (Hammasi nimanidir naqadar eslatyapti!) Sendan ashula aytib berishni so'rashadi...

Raq boshlanadi. Dastlabki juft mening tanam uzra g'archillab o'tib ketadi. Tagcharmlar! Tagcharmlar! Nima uchun barcha botinkalarga taqa qoqilgan? Yonimdagi tuflichalarni kimdir g'ijirlatib bosadi. Kimningdir o'tkir poshnachalari tikuv mashinkasi yanglig' yuzim terisini tikib o'tadi. Ko'zlarimga tegmasa bo'lgani!..

Hammasi esimga keladi. Hammasini tushuna boshlayman.

Robotlar! Robotlar! Robotlar!

Tushlarimda naqadar go'zalsan, sevgilim!

«Shunday qilib chaqaloqning ismi nima edi?» – jig'ibiyroni chiqib so'raydi soqiy.

«Zoya! – baqiraman men. – Zoya!»
Uning ismi balki Ozadir!..

* * *

Bolalar ketib qolar.
Onalar yetim qolar.
Sen bolamsan mening,
tashlab ketgan bolamsan,
ona.



INTIZORLIK

O'n yil o'tib ketdi intizorlikda,
Sen yo'lda. Tobora kelyapsan yaqin.
Yetib kelmog'ing-chun yetarni kuching?
Yo'ling yorug' bo'lmog'i uchun
Shamni derazada qoldirdim yoqib.

Yigirma yil o'tdi intizorlikda,
Sen yo'lda. Tobora kelyapsan yaqin.
Dunyo razolatin yenggaydir kuching.
Jangda senga yorug' bo'lmog'i uchun
Shamni derazada qoldirgum yoqib.

O'ttiz yilim o'tdi intizorlikda,
Sen yo'lda. Sen menga tobora yaqin.
Men ado bo'laman, ketgayman o'chib.
Mensiz senga yorug' bo'lmog'i uchun
Shamni derazada qoldirdim yoqib.



AFSONA

Meni uyg'otasan otganida tong,
Kuzatib qo'ygani chiqasan o'ychan.
Sen unutmaysan meni hech qachon,
Sen meni hech qachon endi ko'rmasan.

Shamollab qolma deb seni o'rayman,
Zirqirab o'ylayman: «Yo, rab! Xudojon!
Men seni hech qachon unutmayman,
Men seni ko'rmayman endi hech qachon».

Hovuzning junjikib turgan bu suvi,
Bu ko'rkam qasr ila bu moviy maydon –
Yodimdan chiqmagay endi bir umr,
Sizni ko'rolmasman endi hech qachon.

Chorlamas umidsiz shahlo gilolar,
Yoshlanib ketgaylar yeldan nogahon.
Xosiyatsiz erur qaytmoq, giloslab,
Men seni ko'rmayman endi hech qachon.

Garchi bu dunyoga qaytib kelsak ham
Hofiz aytganiday evrilib davron.
Baribir ayrilib ketgaymiz, erkam,
Men seni ko'rmayman endi hech qachon.

Bir kun bizlarning bu mavhum muhabbat
Tuyular zarraday mayda va zabun –
Ikki tirik vujud – ikki yod faqat
Boqsa bir-biriga tushuniksiz, gung.

Ko'klarda chayqalur behuda, sarson
Bundan uchgan juft so'z, o'sha juft armon:
«Men seni hech qachon unutmayman,
Men seni ko'rmayman endi hech qachon».

ARXITEKTURA INSTITUTIDA YONG'IN

Institut yonmoqda!
Zallar, chizmalar yonar,
Ozodlikday bu olov –
Yonar, tizmalab yonar!

Mudragan peshtoq bo'ylab
Behayo-yu bemaza,
Qizil ketli
maymunday
Chinqiradi deraza!

Biz-chi bitiruvchilar,
Vaqtimiz oz qolmoqda.
Shkaf ichra qarsillab
Hayfsanlarim yonmoqda!

Vatman qog'oz – qip-qizil
Xazonrezgiday qariyb.
Dastgohlarim yonmoqda,
Yonmoqda shaharlarim.

Kerosin shishasiday
Yondi besh yoz, qishimiz –
chinqirib...
Mahkam bo'l sen,
Yonmoqdamiz, kursdosh qiz!

Xayr, arxitektura!
Ko'p yoning, yoning bedor,
Molxonalar – jimjima,
Rayklublar – naqshinkor!

O' yoshlik, qaqnus yoshlik,
Diplom butunlay olov!
Ol ko'ylaging silkitib sen,
Tiling ko'rsat darrov.

Alvido, talabalik!
Hayot – yong'in, qonursan.
Biz barchamiz yongaymiz.
Yashasang gar – yonursan.

Erta-chi, nishdan battar –
Bir siqim kul ichidan
Pargorning qoq ignasi
Barmog'ingga sanchilar...

...Xo'rsinganlar buncha ko'p.
Barchasi tamom yondi.
Intiho bu!
Ibtido bu!
Ketdik kinoga endi!



O'TIRISH

Barcha to'da bo'lib
o'tirishdi. Biroq –
ikki kishi
qani?!
Ikki kishi yo'q.

Birdan g'ayb urishdi.
Aysh-ishrat aro
bir juft pichoq, bir juft
stul boqar hayron.

Hozirgina ular
o'tirgandi, aniq.
Bor edi –
yo'q endi,
Ikki kishi qani?

Ketishdi ketganday
erib bitgan qor.
Ularga odob-u
bazzm na darkor.

Ketishdi ketganday
jomlar jarangi.
Soylar shunday ketar,
bulutlar – tonggi.

Vasiylaridan
shunday ketar yoshlik,
Ko'klamda kurtaklar
Ketganday shoshib.

O'tirish avjida,
lekin yo'q ular –
dadilligigaki
havasing kelar!

DASTURILAMAL

Axbor vulqonlari ostida,
agar noxos tirik qolsangiz, –
«Oqshom» yoki rayon
«Chaqirig'ini»
yopinib yoting.
Tarekalar haqda o'ylamang hargiz.

Axbor vulqonlari ostida
pivo yo'q,
navbat bor gazetalarga.
Qora sarguzashtdan miyalar
qora olxo'rilar yanglig' quriydi.
Ko'zlar aylanadi kassetalarga.

Axbor vulqonlaridan galdir bo'lgan erkaklar
o'yinqaroq bo'lib qolishar.
Jufti halollari bilan
ezgu harakatlar qilishar,
ammo
hech narsani eplolmagaylar aslo.
So'ng o'ylab topishar har xil ermaklar:
qartaga sho'ng'ishar ayvonlar aro,
g'arq bo'lishar dominoga
yo borarlar kinoga.

Bizning jumboqlarni yechgin, Sfinks!
Insoniyat uch bor ko'paydi.
Qilni qirq yorguvchi dono go'zallar
qurilmaviy nag'malardan dars bergay endi.
Ko'pdan ko'p jasadlar yoppasiga
yozilmoqda sayohatchilar gruppasiga.
Turli shaharlarda ismin yashirib,
aldov yo'li bilan,
iqlinga moslab,
aholini ko'paytirishga
tayyorgarlik ko'rib yurar

qo‘poruvchi Rumyanov debon
yozishmoqda safsatabozlar.

Belgilari:

Mayli bor alvasti va o‘liklarga,
spirit, spirtli ichimliklarga.

Beqiyos ma‘naviy quvvat ajralib chiqar.

Chaqirishar Sergiy ota ruhini yerga.

Alvastilar navbatga turib

Onega uzra

piching qilishar –

ayollarni «Skayleb»ga olishmas nega?

Astronavt falonchiyev parvozgga tayyor,
parvozgga tayyordir spirit Petrov.

Dala uzra infraqizil plashchni kiyib
uchib o‘tmoq qanday ajoyib!

O‘ldirilgan buxgalterni ruhini
chaqirar MUR tergovchisi mahkamasiga.

U tergovdan keyin xo‘mrayib
qaytib borar jahannamiga.

Shimol. Mehnatkashlar mehmonidir yozuvchi ayol.
Qarsaklar to‘rt yonda qorday yaraqlar.
Adibamiz ezgulik va abadiylikning
quruq aravasi yanglig‘ taraqlar...

Asr o‘lyapti – ajraladi uning biodalasi.
Borliq o‘lyapti – ruh ajraladi.
Sabr-u maslak toshib chiqar odamlar uzra,
Eng so‘nggi qo‘shiq yanglig‘ uchar terak parlari.

Bu portlashning
jinoyatkor ajdodlaridan biri –
men uning nomidan so‘ylayman,
uning rost-u yolg‘onidan halok bo‘lganman,
manglayimning qoldiqlari bilan endi o‘ylayman:

O'zimiz o'tqazdik olma daraxtini bilimning
biz – kufroniy navmichurinlar.
Xudodan va iblisdan biz haqiqat kutdik!
Nahotki aslimiz ketdi chiriblar?

Bu portlash daraxti
bizning kunlarga
payvand qilingandir –
mevasini kimlar teradi?
Va bu mash'um daraxt muk tushib
o'qiyotgan mamlakatga nima beradi?

Ko'l yanglig' musaffo, sof,
osmonday toza, tiniq...
Kesib tashlang yiringlagan mening boshimni,
toki jonim ketmasin chirib.

Ma'naviy jang mayibiga sadaqa bering!
Chil-chil bo'lgan taqdirlar – kechikkan o'yindir bas.
Biz sen bilan halok bo'ldik
uning to'lqinlaridan,
Axbor vulqonlari – bu qog'oz yo'lbars.



* * *

Tangrim, kechir mening jonimni!
Turfa davrlardan o'tib sar-basar,
men kelibman Uchburchak nokdan
to'rtburchakli shlapaga qadar.

* * *

Tabiatda istagancha yeb-ichib, so'ngra
Nushxo'rtini yig'ishtirmay ketar odamzot –
Sho'rbaliqning qolib ketgan boshi singari
Samolarda turar vertolyot.



* * *

Erkak yelkasida qizchasi bilan
bug'doyzordan o'tib boradi.
Boshqa yuklar og'irlik qilar,
buni – ko'kka cho'za oladi.

Mamlakatni ko'targandi u,
Ular borar shunday bearmon.
Ko'zlarida – shimol yog'dusi,
Ko'zlarida porlaydi osmon.

Uning ochiq bo'ynini sharfday
o'rab olgan mitti oyoqlar.
Dala uzra qizchani sharday
olib o'tar, chorlar yiroqlar.

Qayonlarga uni eltgaysan?
Yangi asr kelar bunyodga.
Qizim, yolg'iz uchib ketgaysan,
Kim asraydi seni dunyoda?!

* * *

Qabul qilolmayman me'morchilikni,
Atrof-muhit menga aylar ta'nalar –
Dardli tuprog'imning qonini so'rib,
Ko'payib borarkan bino – kanalar.



AQL

Bulbulning jigarin gar
Yesa yer ayollari –
Miyalari yorishib,
Ko'payar aqlari.

Bu g'alat dunyosida
Zohir-u botinlar ko'p.
Bulbullar kam shul sabab,
Aqli xotinlar ko'p.





A.A. Voznesenskiy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7145-1-9



9 789943 714519

